

**BUXORO XALQARO UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2026.10.04.Ped.43.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

QURBONOVA NIGINA BOBOXO‘JAYEVNA

**SADRIDDIN AYNIYNING JADIDCHILIKKA OID FAOLIYATI VA
UNING ASARLARIDA PEDAGOGIK FIKRLAR TARAQQIYOTI
MASALASI**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Qurbonova Nigina Boboxo'jayevna

Sadriiddin Ayniyning jadidchilikka oid faoliyati va uning asarlarida
pedagogik fikrlar taraqqiyoti masalasi..... 3

Курбонова Нигина Бобоходжаевна

Деятельность Садриддина Айни в рамках джадидизма и развитие
педагогической мысли в его произведениях 23

Kurbonova Nigina Bobokhujaevna

Sadriiddin Ayni's activity within jadidism and the development of
pedagogical thought in his works 47

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of publications..... 52

**BUXORO XALQARO UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2026.10.04.Ped.43.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

QURBONOVA NIGINA BOBOXO‘JAYEVNA

**SADRIDDIN AYNIYNING JADIDCHILIKKA OID FAOLIYATI VA
UNING ASARLARIDA PEDAGOGIK FIKRLAR TARAQQIYOTI
MASALASI**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasida B2024.3.PhD/Ped8062 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.bxu.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ahmadov Olimjon Shodmonovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Rahmonov Kamol Jamolovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Hasanova Gulnoz Qosimovna
pedagogika fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro xalqaro universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2026.10.04.Ped.43.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 21 avgust soat 15⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: Buxoro shahri, G'ijduvon ko'chasi 250-uy. Tel.: (55) 309-99-99, email: bxu@bxu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro xalqaro universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (048 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, G'ijduvon ko'chasi 250-uy. Tel.: +998(55) 309-99-99).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 10 avgust da tarqatildi.
(2026-yil 10 avgust dagi 1 -raqamli reestr bayonnomasi).



G. V. Izbullayeva
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, p.f.d., (DSc), professor

G. R. Qurbonova
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.d. (PhD), dotsent

Sh. X. Samiyeva
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, p.f.d., (DSc), professor

KIRISH (Falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida kechayotgan globallashtirish, axborotlashuv va madaniy integratsiya jarayonlari inson ongi va dunyoqarashiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda UNESCOning "Education for Sustainable Development" konsepsiyasida shaxsning fuqarolik mas'uliyati, axloqiy qadriyatlari, madaniy identifikatsiyasi va global kompetensiyalari hamda barqaror taraqqiyotni ta'minlashning muhim omili sifatida e'tirof etmoqda. Xususan, BMT, YUNESKO, ISESCO kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan madaniy merosni asrash, tarixiy qadriyatlarni yosh avlod ongiga singdirish, ma'naviy-ma'rifiy tarbiyani kuchaytirish masalalari ustuvor yo'nalish sifatida e'tirof etilmoqda.

Yaponiya, Janubiy Koreya, Germaniya, Fransiya va Singapur kabi rivojlangan davlatlarda milliy taraqqiyotga hissa qo'shgan tarixiy shaxslar merosini ta'lim tizimiga integratsiya qilish orqali yoshlarda vatanparvarlik, intizom, mehnatsevarlik va fuqarolik madaniyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, ajdodlarimizning boy ilmiy va ma'naviy merosini o'rganish, pedagogik tafakkur taraqqiyotiga oid manbalarni tahlil qilish hamda ular asosida yosh avlodda kitobxonlik madaniyati, vatanparvarlik va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik mexanizmlarni ishlab chiqish bugungi pedagogika fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish jarayonida tarixiy-pedagogik tajribani chuqur tahlil qilish, milliy ta'lim an'analari zamonaviy innovatsion yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish muhim vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda. Ayniqsa, ajdodlarimizning boy pedagogik merosini o'rganish, uning ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etish va amaliyotga tatbiq qilish ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "bizga jadid bobolarimiz kabi g'arb ilm-fani yutuqlarini egallagan, ayni vaqtda milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur"¹. Bu esa jadid ma'rifatparvarlari merosini, xususan, Buxoro jadidlarining pedagogik qarashlarini ilmiy o'rganishning dolzarbligini yanada oshiradi. Shu nuqtai nazardan, jadidlar merosini yosh avlod tarbiyasiga tatbiq etish, ularning ma'naviy-ma'rifiy g'oyalarini zamonaviy ta'lim mazmuniga integratsiya qilish hamda milliy tarbiya tamoyillari asosida komil shaxsni shakllantirish bugungi pedagogika fanining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Respublikamizda olib borilgan keng qamrovli islohotlar natijasida uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish, raqobatbardosh milliy kadrlar va barqaror ishchi o'rinlari yaratish vazifalari dolzarb qilib qo'yilganligi O'zbekiston Respublikasi 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida qonuni", 2022-yil 28-yanvardagi 2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi PF-60-son" farmoni, 2023 yil 11 sentabrdagi

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 22-dekabr kuni o'tkazilgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishidagi nutqi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-158-son “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 10 fevraldagi PQ-126-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida qarori, 2017 yil 24 maydagi PQ-2995-son “Qadimgi yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasining 8 oktabrdagi F-5598 sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021 yil 26 martdagi PQ-5040-son qarori hamda boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning asosiy ustivor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustivor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganganlik darajasi. Keyingi yillarda Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida ma‘naviy-ma‘rifiy hayotda tub sifat o‘zgarishlari yuz berib, buyuk ajdodlarimizning ilmiy va ma‘naviy merosini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish sezilarli darajada ortdi. Mazkur yo‘nalishda S.Nishonova, Sh.Olimov, O.Ahmadov, O‘.Hasanboyeva, H.Homidov, K. Hoshimov, D.Amrudinova, Z.Mullajonova, N.Fayzullayev, F.Qosimov, N.Mahkamova, K.Raxmonov, G.Ostonova, A.Sayfullayev, A.Saloxov, A.Hasanov, B.Qosimov, M.Shukurov J.Sharipov, M.Fattoyev, I.Salimov, M.Saidova, J.Azizqulov, Q.Rajabov, Sh.Hayitov, L.Muhammedjanova, F.Temirov, R.Tursunov, F.Bobojonova, D.Jamolova, Sh.Hamroyev, R.Vohidov, U.Dolimov, M.Axmedova kabi olimlar tomonidan muhim ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, Sadriddin Ayniy hayoti, ijodi, ijtimoiy-siyosiy va ma‘rifiy faoliyatini o‘rganish, shuningdek jadidchilik harakati tarixini yoritishga oid tadqiqotlar uning ilmiy-pedagogik merosini chuqurroq anglashga xizmat qilmoqda.

MDH davlatlari, xususan, Tojikiston Respublikasi olimlari tomonidan Sadriddin Ayniyning ilmiy-pedagogik faoliyati va jadidchilik harakati masalalari keng tadqiq etilgan. Jumladan, A.N.Niyozovning “Sadriddin Ayniy yangi tipdagi maktablarda tarbiya va ta’limning ayrim masalalari” mavzusidagi tadqiqotida allomaning pedagogik qarashlari hamda yangi usul maktablari rivojiga qo‘shgan hissasi ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, A.G‘aniyev, N.Aslova, L.Boboyorova, S.Olimova, M.Tojiboyeva, A.Demonskiy, A.Raxmatullayev, N.Hotamov, I.Usmonov, G.Baturina, I.Braginskiy, A.Najmetdinov, K.Rasulov, U.G‘afurov, Yu.Babayev, K.Belyayev, K.Bendrikov hamda boshqa olimlar tomonidan Turkiston va Buxoro jadidlarining ijtimoiy-siyosiy faoliyati, ma‘rifatparvarlik g‘oyalari va Ayniy hayotiga oid muhim ilmiy ma‘lumotlar tadqiq etilgan. Bundan tashqari, O.Abdullina, Yu.Akobirov, Sh.Xarisov, G.Almaev hamda N.Gaffarov kabi xorijiy olimlarning ilmiy ishlari ham mazkur tadqiqot mavzusining nazariy-metodologik asoslarini boyitishda muhim manba bo‘lib

xizmat qiladi.

Xorijiy mamlakatlarda Sadriddin Ayniyni ijodi va pedagogik faoliyatiga bag'ishlangan tadqiqotlar keng ko'lamda olib borilgan bo'lib, uning yozuvchi va mutafakkir sifatidagi ijodi xalqaro miqyosda yuksak baholangan, I.Dzyuba, S.Marshak, L.Aragon, R.Tagor, L.Sin, T.Husayn, J.London kabi jahon adabiyoti namoyandalari darajasida baholaganlar, Ayniyni faoliyati E.Bekon, H.Enkauz-Karels, A.Zenkovskiy, J.Uiler tomonidan chuqur o'rganilib, uning pedagogik qarashlari va jadidchilik harakatidagi o'rni alohida tahlil qilingan.

Yurtimizda bajarilgan bunday tadqiqot ishlari asosan tarix, filologiya va pedagogika yo'nalishlarida amalga oshirilib, aynan pedagogik jihatdan Sadriddin Ayniyni ma'rifiy-pedagogik faoliyatini o'rganish, mamlakatimiz ilm-fan rivojiga qo'shgan hissasini aniqlash bilan birgalikda "Tahsib us-sibyon" va "Qiz bola yoxud Xolida" asarlaridagi hikoyatlarni didaktik tahlil qilish, ma'naviy-axloqiy g'oyalardan ta'lim-tarbiya jarayonida o'rinli foydalanishga alohida urg'u berilmagan. Mazkur muammoning aniqlanishi, Sadriddin Ayniyni ilmiy merosini o'rganish, uning asaridagi ma'naviy-axloqiy g'oyalarning pedagogik mazmun-mohiyatini yoritish bo'yicha tadqiqot ishini bajarish hamda tahlillar asosida yoritishni yuzaga keltirdi

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq II band "Yangi O'zbekistonda ma'rifatparvar davlat barpo etishning ijtimoiy-falsafiy va ma'naviy-axloqiy asoslarini takomillashtirish muammolari" (2022-2026 yy.) tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Sadriddin Ayniyni jadidchilikka oid faoliyati va uning asarlarida pedagogik fikrlar taraqqiyotini o'rganish hamda yosh avlodni har tomonlama tarbiyalash bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Sadriddin Ayniyni jadidchilik harakatidagi ma'rifiy-pedagogik faoliyatining ilmiy-nazariy ahamiyatini aniqlashtirish;

Adib asarlari va ma'rifiy merosida ilgari surilgan ta'lim-tarbiyaga oid qarashlar mazmunini pedagogik interpretatsiya qilish;

Ayniyni ma'rifatparvarlik g'oyalarini integrativ ta'lim modellari asosida tashkil etish orqali talabalarda ma'naviy immunitetni rivojlantirishga xizmat qiluvchi tarbiyaviy komponentlarning o'zaro integratsiyasini asoslab berish;

Sadriddin Ayniy pedagogik merosi asosida yoshlarni tarbiyalashga oid texnologiyalarining integratsiyasiga oid amaliy tavsiyalar tizimi takomillashtirilgan.

Tadqiqot obyekti sifatida Sadriddin Ayniyni jadidchilikka oid faoliyati va uning asarlarida pedagogik fikrlar taraqqiyoti masalasini o'rganish jarayoni belgilangan bo'lib, tajriba-sinov ishlari doirasida Urganch davlat pedagogika instituti, Buxoro davlat pedagogika instituti va Navoiy davlat universitetlari tanlab olinib, jami 485 nafar respondent ishtirok etgan.

Tadqiqot predmeti sifatida Sadriddin Ayniyni jadidchilikka oid faoliyati

hamda uning asarlarida ifodalangan pedagogik fikrlar taraqqiyotidan oliy ta'lim tizimida foydalanishning mazmuni, shakllari, metodlari va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari: Dissertatsiyada pedagogik tadqiqotlarda qo'llaniladigan, natijalarining ilmiy asoslanganligini ta'minlash uchun tahlil va sintez, adabiyotlar bilan ishlash, manbalarni tahlil etish, qiyosiy tahlil, abstraksiyalash, modellash, matematik-statistik tahlil singari usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Sadriddin Ayniyning jadidchilik harakatidagi ma'rifiy-pedagogik faoliyati zamonaviy yondashuvlar asosida qayta tahlil qilinib, uning milliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, intellektual jamiyatni shakllantirish va inson kapitalini rivojlantirishga oid g'oyalarining ilmiy-nazariy ahamiyati aniqlashtirilgan;

Adib asarlari va ma'rifiy merosida ilgari surilgan ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarning mazmuni XXI asr ta'lim tendensiyalari - kompetensiyaviy yondashuv, milliy va global fuqarolik, mediamadaniyat va ma'naviy immunitetni shakllantirish nuqtai nazaridan pedagogik interpretatsiya qilingan;

Ayniyning ma'rifatparvarlik g'oyalarini raqamli ta'lim muhiti, kompetensiyaviy yondashuv, innovatsion pedagogik texnologiyalar hamda integrativ ta'lim modellari asosida zamonaviy ta'lim jarayoniga tatbiq etishning ilmiy-metodik mexanizmi hamda milliy qadriyatlar, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va ma'naviy immunitetni rivojlantirishga xizmat qiluvchi tarbiyaviy komponentlarning o'zaro integratsiyasi pedagogik jihatdan asoslab berilgan;

Sadriddin Ayniy pedagogik merosi asosida yoshlarda tanqidiy fikrlash, ijtimoiy faollik, milliy identiklik, vatanparvarlik va ma'naviy barqarorlikni rivojlantirishga qaratilgan innovatsion tarbiyaviy model takomillashtirilib, unda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, muammoli ta'lim (problem-based learning), loyihaviy faoliyat (project-based learning) hamda raqamli ta'lim texnologiyalarining integratsiyasiga oid amaliy-metodik tavsiyalar tizimi takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Sadriddin Ayniy ijodiy va pedagogik merosini o'rganish natijasida uning jadidchilik g'oyalari asosidagi tarbiya usuli, mazmuni va shakllarining tarixiy, ma'naviy hamda zamonaviy komponentlari aniqlanib, zamonaviy pedagogik metodlar bilan uyg'unlashtirilgan "ilm-ma'rifatga asoslangan shaxs tarbiyasi" modeli va milliy-ma'naviy qadriyatlarga tayangan tarbiya dasturi ishlab chiqildi hamda u bugungi ta'lim-tarbiya jarayonida samarali qo'llanishi mumkinligi tasdiqlandi.

Sadriddin Ayniyning ta'lim-tarbiyaviy qarashlarini qiyosiy o'rganish natijasida uning axloqiy tarbiya va ma'naviy-ruhiy poklikka oid g'oyalari Sharq mumtoz pedagogikasi bilan uyg'unligi, ilm-ma'rifat va milliy uyg'unlashga oid qarashlari jadidchilik ta'limotiga xosligi, insonparvarlik, kitobxonlik va ijtimoiy adolatga oid tamoyillari esa zamonaviy pedagogikaning shaxsga yo'naltirilgan yondashuviga hamohangligi aniqlanib, bu meros milliy va umumbashariy qadriyatlarni uyg'unlashtiruvchi metodik asos sifatida qo'llanishi mumkinligi amaliy jihatdan tasdiqlandi.

Ayniyning pedagogik qarashlari asosida takomillashtirilgan model tajriba-sinovlarda tanqidiy va mustaqil fikrlash, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni fanlar bilan uyg'unlashtirish, kitobxonlik va ijodiy tafakkurni qo'llab-quvvatlash hamda ijtimoiy mas'uliyat va insonparvarlikni shakllantirishga yo'naltirilgan metodik ko'rsatmalarni samarali joriy etib, talabalarning bilim o'zlashtirish samaradorligi, ijtimoiy faolligi va kasbiy kompetensiyalarida sezilarli ijobiy natijalar berdi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoga pedagogika tarixi va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlardan qo'llanilgan ilmiy yondashuvlar va usullar asosida birlamchi arxiv manbalari, ilmiy-nazariy adabiyotlar va davriy matbuot materiallaridan foydalanilgan bo'lib, taklif va tavsiyalarning amaliyotga tadbqiq etilgani, olingan natijalarni vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, Sadridin Ayniyning jadidchilikka oid faoliyati hamda uning asarlarida ilgari surilgan pedagogik fikrlar taraqqiyotiga doir g'oyalarning mazmuni va xususiyatlari ilmiy asosda tahlil qilinib, zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbqiq etish imkoniyatlari ochib beriladi. Tadqiqot jarayonida erishilgan ilmiy xulosalar nafaqat milliy pedagogik tafakkur taraqqiyotini chuqurroq anglashga, balki yangi metodik yondashuvlarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish orqali ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ayniy merosining nazariy jihatlarini o'qituvchilarning kasbiy mahoratini yuksaltirish, yosh avlodda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'un shakllantirish hamda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun muhim manba vazifasini bajaradi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, o'zbek pedagogika fanining nazariy asoslarini boyitish bilan birga, ta'lim-tarbiya tizimida qo'llanilishi mumkin bo'lgan samarali texnologiyalarni taklif etishi bilan ham amaliy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati, eng avvalo, unda ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy umumlashma va tahlillarning ta'lim jarayonida keng qo'llanish imkoniyatlari bilan belgilanadi. Xususan, mazkur natijalardan "Pedagogika nazariyasi va tarixi", "Umumiy pedagogika" kabi fanlarni o'qitishda, yangi avlod darsliklari, o'quv qo'llanmalari va metodik majmualar yaratishda samarali foydalanish mumkin. Shu bilan birga, tadqiqotdan olingan xulosalar pedagogik ta'lim mazmunini yangilash, o'quv dasturlarini boyitish, darsliklarni takomillashtirish hamda zamonaviy ta'lim metodlarini ishlab chiqishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Natijada, bu ilmiy izlanish pedagogik kadrlar tayyorlash jarayonini yanada takomillashtirish, yosh avlodni tarbiyalashda innovatsion yondashuvlarni joriy etish va ta'lim samaradorligini oshirishga amaliy hissa qo'shadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sadridin Ayniyning jadidchilikka oid faoliyati va uning asarlarida pedagogik fikrlar taraqqiyoti masalasi bo'yicha tadqiqot natijalari asosida:

Sadridin Ayniyning jadidchilik harakatidagi ma'rifiy-pedagogik faoliyati zamonaviy sivilizatsion yondashuvlar asosida qayta tahlil qilinib, uning milliy

ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, intellektual jamiyatni shakllantirish va inson kapitalini rivojlantirishga oid g'oyalarining ilmiy-nazariy ahamiyati aniqlashtirilgan ma'lumotlar asosida O'zbekiston milliy tetradiokompaniyasi Buxoro viloyati teleradiokanalining "Assalom Buxoro", "Moziy bisotidan", "Asrlarning asraganlari" ko'rsatuvlari senariysi tuzishda foydalanilgan va davra suhbatlari uyushtirilgan. (O'zbekiston milliy tetradiokompaniyasi Buxoro viloyati teleradiokanali 2025 yil 4 fevraldagi 01-09-56-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ko'rsatuvlar mazmunini boyitishga, teletomoshabinlarga Sadridin Ayniyniing jadidchilikka oid faoliyati hamda uning asarlarida ilgari surilgan pedagogik fikrlar taraqqiyotiga doir g'oyalarning mazmuni hamda o'lkada yangi paydo bo'lgan ta'lim-tarbiya tizimi haqida keng tushunchalarga ega bo'lish imkoni oshgan.

Adib asarlari va ma'rifiy merosida ilgari surilgan ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarning mazmuni XXI asr ta'lim tendensiyalari - kompetensiyaviy yondashuv, milliy va global fuqarolik, mediamadaniyat va ma'naviy immunitetni shakllantirish nuqtai nazaridan pedagogik interpretatsiya qilingan tavsiyalar asosida Buxoro davlat universitetining "PZ-202005236-raqamli Oila psixologiyasi fanidan multimediya mahsulotini yaratish" mavzusidagi innovatsion-tadqiqot loyihani amalga oshirishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Buxoro davlat universiteti 16 sentyabr 2025 yil 01-11-05/5625-son ma'lumotnoma). Natijada, Buxoro davlat universitetining "PZ-202005236-raqamli Oila psixologiyasi fanidan multimedia mahsulotini yaratish" mavzusidagi innovatsion-tadqiqot loyihasi doirasida adib asarlari va ma'rifiy merosida ilgari surilgan ta'lim-tarbiyaga oid g'oyalar XXI asr ta'lim tendensiyalari nuqtai nazaridan pedagogik qayta talqin qilingan.

Ayniyniing ma'rifatparvarlik g'oyalarini raqamli ta'lim muhiti, kompetensiyaviy yondashuv, innovatsion pedagogik texnologiyalar hamda integrativ ta'lim modellari asosida zamonaviy ta'lim jarayoniga tadbiq etishning ilmiy-metodik mexanizmi hamda milliy qadriyatlar, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va ma'naviy immunitetni rivojlantirishga xizmat qiluvchi tarbiyaviy komponentlarning o'zaro integratsiyasi pedagogik jihatdan asoslab berilgan taklif va tavsiyalardan "Pedagogika nazariyasi va tarixi" nomli o'quv qo'llanmasi mazmunini boyitishda foydalanildi. (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 9-iyuldagi 258-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan 401751-sonli guvohnoma). Natijada, mazkur o'quv qo'llanma mazmuni zamonaviy ta'lim paradigmalari asosida boyitilib, Ayniyniing ma'rifatparvarlik g'oyalari raqamli ta'lim muhiti, kompetensiyaviy yondashuv va innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirilgan holda integrativ ta'lim modeli doirasida ilmiy-metodik jihatdan qayta talqin qilindi.

Sadridin Ayniy pedagogik merosi asosida yoshlarda tanqidiy fikrlash, ijtimoiy faollik, milliy identiklik, vatanparvarlik va ma'naviy barqarorlikni rivojlantirishga qaratilgan innovatsion tarbiyaviy model takomillashtirilib, unda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, muammoli ta'lim (problem-based learning), loyihaviy faoliyat (project-based learning) hamda raqamli ta'lim texnologiyalarining integratsiyasiga oid amaliy - metodik tavsiyalar tizimi takomillashtirilgan tavsiyalar asosida "Pedagogika nazariyasi va tarixi"

nomli o'quv qo'llanmasi mazmunini boyitishda foydalanildi. (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 9-iyuldagi 258-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan 401751-sonli guvohnoma). Natijada, o'quv qo'llanma pedagogik fanlar mazmunini zamonaviylashtirish, ta'limning innovatsion modellarini joriy etish hamda talabalarning kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy ahamiyatga ega manba sifatida takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika miqiyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy nashr ishlari chop etilgan. Jumladan, 1 ta o'quv qo'llanma nashr etilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, shundan 1 ta xorijiy jurnallarda, 4 ta respublika ilmiy jurnallarida, ilmiy-amaliy anjumanlarida 2 ta tezislar chop etilgan.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilova qismlardan tarkib topgan bo'lib. Dissertatsiyaning asosiy hajmi 159 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zaruriyati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, ishning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, metodlari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, aprobatsiyasi, joriylanishi, e'lon qilinishi, dissertatsiyaning tuzilishiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Sadriddin Ayniy jadidchilik faoliyatini o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida Sadriddin Ayniy jadidchilik faoliyati va qarashlarni o'rganish ijtimoiy - pedagogik muammo ekanligi ilmiy asoslanib, jahon ilm-fani va madaniyatiga salmoqli hissa qo'shgan ma'rifatparvar mutafakkir sifatida o'zining ilmiy-pedagogik merosi bilan pedagogika tarixida alohida o'rin ega ekanligini, pedagogik qarashlari hali hanuz chuqur o'rganilmagan bo'lib, dolzarb ilmiy ahamiyatga ega ekanligi asoslangan.

Sadriddin Ayniy – jadidchilik harakatining yirik namoyandalaridan biri, ma'rifatparvar adib, tarixchi, tilshunos va pedagog sifatida Markaziy Osiyo madaniy-ma'naviy hayotida chuqur iz qoldirgan siymodir. U jadidlar qatori yangi uslubdagi maktablar ochish, zamonaviy ta'lim tizimini joriy qilish, milliy madaniyatni rivojlantirish, ona tilida davriy nashrlar chiqarish orqali xalqni ma'rifatga yetaklashni hayotiy maqsadi ekanligi, muammoni tadqiqotchilarning fikr-mulohazalari tahlil etilib, mualliflik munosabatlari bayon etilgan. Uning pedagogik qarashlari yosh avlodni halollik, mehnatsevarlik, ilmga chanqoqlik va

insoniy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalashga qaratilgan bo'lib, bugungi zamonaviy ta'lim jarayoni uchun ham dolzarb ekanligi bayon etilgan.

Sadriddin Ayniy jadidchilik harakatining yetuk vakillaridan biri sifatida ta'lim-tarbiyani yangilash, milliy uyg'onish va ma'rifatparvarlik g'oyalarini ilgari surgan, o'zining chuqur ilmiy-badiiy merosi bilan ta'lim tarixida muhim o'rin egallagan siymo ekanligi pedagogika nazariyasi va tarixi darsligida o'z aksini topgan. Shuningdek, yangi uslubdagi maktablar tashkil etish, zamonaviy o'quv adabiyotlarini yaratish, ijtimoiy-ma'naviy muammolarni fosh etish orqali xalqni ilm-ma'rifatga yetaklash Sadriddin Ayniyning bosh maqsad ekanligi yoritib berilgan.

Ayniy ijodida axloqiy poklik, ijtimoiy adolat, halollik, mehnatsevarlik va ilmu ma'rifatga intilish asosiy pedagogik g'oya ekanligi tahlil etildi. "Eski maktab", "Qiz bola yoxud Xolida", "Esdaliklar", "Doxunda" singari asarlarida o'z davrining ta'lim tizimidagi muammolarini tanqidiy tahlil etgan holda, ilg'or pedagogik qarashlarni ilgari surgan. Shuningdek, u Buxoro madrasalarida olgan chuqur diniy-ilmiy bilimlarini xalq xizmatiga bag'ishlab, zamonaviy tafakkur va insonparvarlik asosidagi tarbiya tizimini asoslashga harakat qilgan. Jadidlarning, xususan, Ayniyning pedagogik qarashlari to'g'risida O'zbekiston va Tojikistonda, shuningdek, xorijiy mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlar, uning asarlarining axloqiy-ma'rifiy mohiyati, yoshlar tarbiyasidagi o'rni va zamonaviy ta'limga integratsiyalash muhimligini tasdiqlaydi. Shu sababli, Sadriddin Ayniy ijodi va pedagogik qarashlarini tizimli ilmiy asosda tahlil qilish, ularning hozirgi ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llanish imkoniyatlarini aniqlash bugungi kundagi dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri sanaladi (1-jadvalga qarang).

1-javdal

Buxoro ta'lim tizimi va jadidlarning metodikasi va ularning farqli yondashuvlari

Ko'rsatkich	Buxoro ta'lim tizimi (an'anaviy)	Jadidchilik harakati (yangilikparvarlik)
Mazmun	Faqat diniy fanlar (fiqh, tafsir, nahv, sarf, hadis)	Diniy + dunyoviy fanlar (matematika, geografiya, tarix, biologiya)
Metodika	Yodlashga asoslangan, ustoz markazli	Tushuntirish, suhbat, savol-javob, darslik asosida o'qitish
O'quv vositalari	Asosan qo'lyozmalar, eski uslubda yozilgan matnlar	Bosma darsliklar, ruscha va turkiy asarlardan tarjimalar
Shakllanish manbalari	Sharq diniy ilmlari, turli islomiy maktablar	G'arb va Sharq uyg'unligi, Ovro'pa ta'lim modellari, Usmonlilar, Qrim jadidchiligi
Baholash tizimi	Sanad (bitiruv) va domla roziligi orqali	Imtihonlar, savol-javoblar, yozma ishlar orqali

Sadriddin Ayniy merosidan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish, uning jadidchilik harakati va ma'rifatparvarlik qarashlariga tayangan holda, bugungi pedagogik faoliyatda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, kelajak avlodlarga o'zining ilmiy merosi orqali ibrat maktabini yaratib ketdi. Ayniy asarlari orqali talabalarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish, milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik, halollik, mehnatsevarlik kabi ijtimoiy

qadriyatlarni singdirish imkoniyati yaratiladi. Shu bois, Sadriddin Ayniy pedagogik qarashlarini ta'lim jarayoniga kompleks yondashuv asosida integratsiya qilish komil inson tarbiyalash masalalari hamda ularni ilm-fan orqali jamyat taraqqiyotiga yetuk shaxlar qilib tarbiyalashda, ona yurtga nisbatan mehrli hamda vatanparvarlik ruhida bayon etilganligi muhim o'rin tutadi (2-jadvalga qarang).

2-jadval

Sadriddin Ayniy pedagogik g'oyalardan ta'lim jarayonida foydalanish bosqichlari

a) Tahliliy tayyorgarlik bosqichi		
1.	Asarlarni ilmiy tahlil qilish	Ayniy asarlarida ilgari surilgan tarbiya, ma'rifat, o'qituvchi va maktab haqidagi fikrlarni tematik jihatdan guruhlash
2.	Pedagogik g'oyalarni aniqlash	Milliy qadriyatlar, insonparvarlik, ilmga intilish, adolatparvarlik kabi g'oyalarni ajratib olish
3.	Mavzularni zamonaviy ta'lim standartlariga moslashtirish	O'zbekistonning milliy o'quv dasturi va kompetensiya yondashuvi bilan uyg'unlashtirish.
b)Rejalashtirish va moslashtirish bosqichi		
4.	O'quv rejasiga integratsiya qilish	Ayniy asarlaridagi pedagogik g'oyalarni adabiyot, tarix, ma'naviyat darslariga, shuningdek, tarbiya soatlariga kiritish
5.	Dars ishlanmalari va metodik tavsiyalar ishlab chiqish	Innovatsion metodlar (klaster, debat, muammoli ta'lim) orqali asarlarni o'rganish.
6.	Tarbiyaviy tadbirlar ssenariysiga kiritish	"Ma'rifat va jaholat", "Ayniy Buxoro jadid maktabi asoschilaridan", "Ustoz Ayniy izdoshlari" mavzularida tadbirlar tashkil etish
c)Amaliyotga joriy etish bosqichi		
7.	Ta'lim jarayonida tadbiq qilish	Dars va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda Ayniy g'oyalarini amaliy misollar orqali tushuntirish
8.	Talabalarni faol jalb qilish	Kitobxonlik kechalari, asarlarni muhokama qilish, interfaol loyihalar tashkil etish
9.	Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'un targ'ib qilish	Ma'rifatparvarlik ruhidagi g'oyalarni zamonaviy yoshlar hayotiga bog'lash
d) Baholash va tahlil bosqichi		
10.	Talabalar dunyoqarashidagi o'zgarishlarni o'lchash	Anketa, suhbat, testlar orqali natijalarni baholash.
11.	Pedagogik samaradorlikni aniqlash	Ma'naviy-axloqiy rivojlanish ko'rsatkichlarini tahlil qilish.
12.	Takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berish	Ta'lim jarayonini yanada samarali qilish uchun yangi yondashuvlarni ishlab chiqish
e)Barqaror rivojlantirish bosqichi		
13.	Doimiy metodik qo'llab-quvvatlash	O'qituvchilar uchun seminar-treninglar, metodik qo'llanmalar yaratish.
14.	Ilmiy-tadqiqot ishlarini davom ettirish	Ayniy pedagogik merosini yangi zamonaviy g'oyalar bilan uyg'unlashtirib o'rganish
15.	Tarbiyaviy an'analarni mustahkamlash	Milliy o'zlikni anglash va ma'rifatparvarlik ruhini yoshlar ongida mustahkam o'rnatish

Mazkur Sadriddin Ayniy pedagogik g'oyalarini ta'lim jarayoniga bosqichma-bosqich tadbiq etishga qaratilgan tizimli yondashuv dastlab, uning asarlaridagi tarbiyaviy va ma'rifiy g'oyalar ilmiy tahlil qilinib, milliy qadriyatlar va kompetensiyaviy yondashuv bilan uyg'unlashtiriladi. Keyingi bosqichda bu g'oyalar o'quv rejalari, dars ishlanmalari va tarbiyaviy tadbirlarga integratsiya qilinib, interfaol metodlar orqali amaliyotga joriy etiladi. So'ngra, ta'lim jarayonida talabalar faolligi oshirilib, ularning dunyoqarashi va ma'naviy rivojlanishi anketa, test va suhbatlar orqali baholanadi. Yakuniy bosqichda esa metodik qo'llab-quvvatlash va ilmiy tadqiqotlar orqali modelning barqaror rivoji ta'minlanadi. Natijada, Ayniy pedagogik merosi asosida yoshlarning ma'naviy-axloqiy va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi yaxlit pedagogik tizim shakllanadi.

“Sadriddin Ayniy pedagogik qarashlardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari” nomlangan ikkinchi bobida Sadriddin Ayniy o'z davrining yirik ma'rifatparvari, pedagog va islohotchisi sifatida zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimiga oid ilg'or g'oyalari, shaxs kamoloti va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi tarbiyaviy fikrlari talqin qilgan. Oliy ta'lim tizimida uning merosidan foydalanishga yo'naltirilgan ta'lim mazmunini milliy - ma'naviy qadriyatlarga asoslash, o'qituvchi shaxsining mukammalligini ta'minlash, talabalarda axloqiy immunitet va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish, tarixiy - merosiy matnlarni amaliy-pedagogik resurs sifatida integratsiyalash singari pedagogik shart-sharoitlari bayon etilgan.

Sadriddin Ayniy “Tahzib us-sibyon”, “Esdaliklar”, “Sudxo'ring o'limi”, “Qiz bola yoki Xolida” kabi asarlarida ta'lim-tarbiya mazmuni insonning ma'naviy kamoloti, axloqiy yetukligi va jamiyat oldidagi mas'uliyatini shakllantirish bilan chambarchas bog'liq holda talqin etiladi. Mutafakkir intizom masalasiga oddiy tartib-qoida sifatida emas, balki axloqiy tarbiyaning ajralmas tarkibiy qismi sifatida yondashadi. Uning pedagogik qarashlarida intizom insonning ichki madaniyati, burch hissi, o'zini boshqara olish qobiliyati va jamiyat manfaatlariga ongli ravishda xizmat qilishi bilan izohlanadi. Ayniy fikricha, haqiqiy intizom majburlash yoki qo'rqitish orqali emas, balki ongli munosabat, ma'naviy e'tiqod va shaxsiy mas'uliyat asosida shakllanadi. Shu sababli u tarbiya jarayonida insonning ichki dunyosiga ta'sir etuvchi pedagogik yondashuvlarni ustuvor deb biladi. Adibning asarlarida o'quvchi va tarbiyalanuvchini hurmat qilish, uning fikrini inobatga olish hamda shaxs sifatida qadrlash g'oyalari muhim o'rin egallaydi. Bu esa o'zaro hurmat tamoyilining pedagogik jarayondagi asosiy omillardan biri ekanligini ko'rsatib beradi.

Sadriddin Ayniy ta'lim-tarbiya jarayonida tashabbuskorlikni inson kamolotining muhim mezoni sifatida talqin qiladi. Uning qarashlariga ko'ra, yosh avlod mustaqil fikrlaydigan, yangilikka intiladigan, jamiyat taraqqiyotiga daxldorlik hissi bilan yashaydigan shaxs bo'lib shakllanishi zarur. Shu jihatdan u o'quvchilarning faolligi, izlanuvchanligi va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga

alohida e'tibor qaratadi. Mutafakkir insonning o'z xatolarini tan olishi va ulardan to'g'ri xulosa chiqarishini ham tarbiyaning muhim ko'rsatkichi sifatida baholaydi. Chunki xatoni anglash va uni bartaraf etishga intilish shaxsning ma'naviy o'sishi hamda o'z ustida ishlash madaniyatini shakllantiradi. Ayniy nazarida komil inson doimiy ravishda o'zini takomillashtirib boradigan, bilim va tajribasini boyitadigan, o'z kamchiliklarini tahlil qila oladigan shaxsdir. Shu bois uning asarlarida tarbiya jarayoni insonni nafaqat bilimli, balki vijdonli, mas'uliyatli, intizomli va ma'naviy barkamol etib voyaga yetkazishga xizmat qiluvchi uzluksiz pedagogik jarayon sifatida yoritilgan. Sadriddin Ayniy asarlarida talaba yoshlarda ongli munosabat, o'zaro hurmat, tashabbuskorlik, xatolarini tan olish va o'z ustida ishlashga undovchi yondashuvlarning pedagogik mazmuni (3-jadvalga qarang).

3-jadval

Sadriddin Ayniy asarlari orqali talabalarda shakllanadigan sifatlar

Asar nomi	Ongli munosabatni shakllantirish	O'zaro hurmat tamoyili	Tashabbuskorlikni rivojlantirish
“Esdaliklar”	Talaba yoshlarda hayotiy voqealarga ongli yondashish, voqelikni tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmasini shakllantiradi	Inson qadr-qimmatini ulug'lash, kattalarga hurmat va kichiklarga mehr tamoyillarini targ'ib qiladi	Yoshlarni ilm olishga, faol bo'lishga va jamiyat hayotida daxldorlik hissi bilan yashashga undaydi
“Sudxo'ring o'limi”	Halollik va adolatga asoslangan ongli qarashlarni shakllantirishga xizmat qiladi	Jamiyatdagi insoniy munosabatlar, mehr-oqibat va o'zaro ishonchning ahamiyatini ko'rsatadi	Yoshlarni jamiyatdagi salbiy illatlarga qarshi kurashishda faol pozitsiyani egallashga undaydi
“Qiz bola yoki Xolida”	Yoshlarni gender tengligi va inson erkinligini ongli ravishda tushunishga yo'naltiradi	Ayollarga hurmat, inson sha'nini qadrlash va teng munosabat madaniyatini shakllantiradi	Qizlarning ilm olishga intilishi va o'z taqdirini o'zi belgilashga bo'lgan harakati orqali tashabbuskorlik targ'ib qilinadi
“Tahzib us-sibyon”	Intizom, mas'uliyat va burch hissini ongli ravishda anglashga yordam beradi	Ota-ona, ustoz va jamiyatga nisbatan hurmat ruhini singdiradi	Bilim olishga intilish, yaxshi fazilatlarni egallash va foydali faoliyat bilan shug'ullanishga undaydi

Sadriddin Ayniy asarlari vositasida talabalarda ma'naviy-axloqiy xususiyatlarni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik omillari, avvalo, insonparvarlik, ma'rifatparvarlik va milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiyaviy qarashlar tizimi bilan belgilanadi. Mutafakkir asarlarida ilm - ma'rifat inson kamolotining asosiy omili sifatida talqin qilinib, yosh avlodni jaholat, loqaydlik va ma'naviy qashshoqlikdan xalos etuvchi kuch sifatida yoritiladi. Ayniy ta'lim-tarbiyani shaxsning nafaqat bilim olishi, balki uning axloqiy, estetik va

ijtimoiy jihatdan yetuk inson bo'lib shakllanishiga xizmat qiluvchi jarayon deb baholaydi. Adibning asarlarida yoshlarni halollik, vijdonlilik, adolatparvarlik, mehnatsevarlik va inson qadr-qimmatini ulug'lash ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratiladi. Mazkur jihatlar zamonaviy pedagogik jarayonda talabalarning ma'naviy immunitetini kuchaytirish, ularda sog'lom dunyoqarash va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Ayniy asarlaridagi ijtimoiy-pedagogik omillarning yana bir muhim jihati shundaki, ularda tarbiya jarayoni jamiyat hayoti bilan uzviy bog'liq holda tasvirlanadi. Adib o'z qahramonlari hayoti orqali insonning ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanishini ko'rsatib beradi. Bu esa talaba yoshlarni ijtimoiy mas'uliyat, jamoaviylik va o'zaro hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Ayniqsa, "Esdaliklar", "Sudxo'ring o'limi" hamda "Qiz bola yoki Xolida" kabi asarlarida jamiyatdagi tengsizlik, ma'naviy tanazzul va jaholatning salbiy oqibatlari ochib berilib, buning qarama-qarshisida ilm, ma'rifat va ezgulikning ustuvorligi targ'ib etiladi. Bunda talabalar tanqidiy fikrlash, voqelikni tahlil qilish va ijtimoiy hodisalarga ongli munosabat bildirish ko'nikmalari shakllanadi. Shu bilan birga, asarlarda insonning o'z ustida ishlashi, xatolaridan saboq chiqarishi va doimiy ravishda ma'naviy jihatdan takomillashib borishi komil inson tarbiyasining muhim mezoni sifatida talqin qilinadi.

Sadriddin Ayniy asarlarining pedagogik ahamiyati shundaki, ular talabalarda milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani qadrlash hamda umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan yondashish kabi sifatlarni shakllantiradi. Adib yoshlarni erkin fikrlashga, mustaqil qaror qabul qilishga va jamiyat taraqqiyotiga daxldorlik hissi bilan yashashga undaydi. Bu esa zamonaviy ta'lim tizimida barkamol shaxsni tarbiyalashning muhim ijtimoiy-pedagogik omillaridan biri hisoblanadi. Ayniy ilgari surgan pedagogik qarashlar bugungi globallashuv sharoitida talabalarning ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni mustahkamlash hamda ma'naviy tahdidlarga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Sadriddin Ayniy asarlaridan dars jarayonida foydalanish talabalarda ma'naviy axloqiy fazilatlarini shakllantirish, ularning nafaqat individual bilim olishlari, balki o'zaro hamkorlikda faoliyat yuritish qobiliyatini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Ta'lim-tarbiya jarayonda talabalar o'quv materialini birgalikda anglab olishi, o'quv jarayonida qo'llaniladigan metodlarni samarali tanlash, ulardan oqilona foydalanishi, shuningdek, ta'lim jarayonini mustaqil, ijodiy tarzda loyihalashtira olish ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Bularning barchasi esa talabalarda jamoada ishlash madaniyati, o'zaro fikr almashish, muammoli vaziyatlarda birgalikda yechim topish va pedagogik hamkorlikni to'g'ri yo'lga qo'yish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shunday qilib, Sadriddin Ayniy merosidan foydalanish nafaqat ma'naviy-ma'rifiy bilimlarni o'rganish, balki zamonaviy ta'limning muhim jihati bo'lgan hamkorlikda ishlash mexanizmlarini samarali

tashkil etishga, kelgusidagi kasbiy faoliyatga puxta tayyorlashga xizmat qiladi. Sadridin Ayniy asarlaridan ta'lim-tarbiya jarayoni – bu o'quvchi (talaba) shaxsini har tomonlama kamol toptirishga qaratilgan, bilim berish, ko'nikma, malakalarni shakllantirish, ma'naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish, shuningdek, uni hayot va mehnatga tayyorlashga xizmat qiladigan uzluksiz pedagogik jarayon sifatida talqin qilinadi.


Sadridin Ayniyning jadidchilikka oid faoliyati va uning asarlaridan foydalanishning takomillashgan modeli (1-rasmga qarang) o'quv jarayonini tizimli, integrativ hamda kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etishga xizmat qiluvchi innovatsion pedagogik tizim hisoblanadi.

Mazkur modelda adibning “Esdaliklar”, “Sudxo'ring o'limi”, “Qiz bola yoki Xolida”, “Tahzib us-sibyon” kabi asarlaridagi ma'rifatparvarlik, insonparvarlik, ilmga intilish, adolat, erkin fikrlash va axloqiy yetuklikka oid g'oyalardan samarali foydalanish orqali talabalarda tanqidiy tafakkur, ongli munosabat, tashabbuskorlik, ijtimoiy mas'uliyat, ma'naviy immunitet hamda fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish nazarda tutiladi. Modelning asosiy maqsadi yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, mustaqil fikrlaydigan, ma'naviy barkamol, barqaror rivojlanishga tayyor hamda jamiyat taraqqiyotiga daxldorlik hissi bilan yashaydigan faol fuqarolar sifatida tarbiyalashdan iborat bo'lib, u ta'limning maqsad, mazmun, metod va natija komponentlarini o'zaro integratsiyalashgan holda tashkil etish orqali talabalarning reflektiv, kommunikativ, kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Sadridin Ayniy ilmiy pedagogik merosi orqali yoshlarda vatanparvarlik, ona yurtga muhabbat, axloqiy fazilatlar, insonning fuqarolik pozitsiyasi hamda uning jamiyat uchun barkamol shaxs bo'lib shakllanishiga poydevor bo'lib xizmat qiladi. Ilm-ma'rifat orqali jamiyatda taraqqiyot yo'liga dasturamal bo'lishi, zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonida Sadridin Ayniyning pedagogik merosi orqali milliy qadriyatlarga tayangan holda amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Talabalarda ijtimoiy-pedagogik sifatlar, jumladan, ma'naviy poklik va odob, vatanparvarlik va fuqarolik mas'uliyati, mehnatsevarlik, jamoada ishlash ko'nikmasi, bilimga chanqoqlik va ijodkorlik, ijtimoiy faollik, mas'uliyat va mustaqillik, tolerantlik va bag'rikenglik kabilarni rivojlantirishda Sharq mutafakkirlari, diniy ulamolar ayniqsa, jadid ma'rifatparvarlari-yu pedagog olimlarining ilmiy merosi muhim o'rin tutadi.

